

KASB TANLASHDA AN'ANALAR ZANJIRINI UZISH LOZIM*Yuvasheva Nigora Zoxidjonovna**Namangan viloyati Pop tumani 32-maktab psixologi***Annotatsiya**

Ushbu maqolada kasb tanlash jarayonida an'anaviy qarashlarning ta'siri va ularning zamonaviy mehnat bozori talablariga mos kelish darajasi tahlil qilinadi. Ko'plab oilalarda kasb tanlashda ota-ona yoki avlodlar an'analarga ergashish holatlari uchraydi. Biroq bugungi globallashuv sharoitida shaxsning qiziqishi, qobiliyati va bozor ehtiyojlari asosida mustaqil kasb tanlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda an'anaviy yondashuvlarning ijobiy va salbiy jihatlari yoritilib, yoshlarni ongli kasb tanlashga yo'naltirish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, kasbiy yo'nalish tanlashda zamonaviy kasblar va innovatsion sohalarning o'rni ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Kasb tanlash, an'ana, mehnat bozori, kasbiy yo'nalish, qobiliyat, qiziqish, innovatsiya, yoshlar, mustaqil qaror, ta'lim.

Kirish

Mamlakatimizda bugungi yoshlarimizga berilgan keng imkoniyatlardan foydalanib, jahonni lol qoldiradigan darajada yutuqlarga erishilmoqda. Har bir inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan — kasb tanlash masalasi hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, an'anaviy qarashlar va oilaviy urf-odatlar ta'sirida qilingan kasb tanlovi qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligi, hamda bu zanjirni uzish lozim. Biz shunday jamiyatda yashayapmizki, ko'p hollarda inson o'z xohishidan ko'ra jamiyat kutgan yo'lni tanlashga majbur bo'ladi. Bu holat ayniqsa kasb tanlashda yaqqol ko'zga tashlanadi. Misol uchun: ota-ona o'z orzusidagi kasb egasini farzandida amalga oshirishga harakat qiladi ya'ni farzand shifokor bo'lmoqchi lekin ota – ona uni huquqshunos qiladi. Qadimdan har bir oilada ma'lum bir kasbni avloddan-avlodga o'rgatish an'anasi mavjud bo'lgan. Dehqonning o'g'li dehqon, hunarmandning farzandi hunarmand bo'lishi tabiiy hisoblangan. Bu holat ma'lum ma'noda ijobiy — tajribaning saqlanishi va kasbning unutilmasligi uchun xizmat qilgan.

Lekin bu an'ana zamon o'tishi bilan majburiy ruhiyat kasb etib, insonlar o'z qobiliyati va qiziqishlarini emas, balki ota-bobolar kasbini tanlashga majbur bo'lib qolishdi. Bu esa ko'plab insonlarning baxtsiz, so'ng'in ruhiyatda hayot kechirishiga, o'z kasbiga muhabbat uyg'onmasligi, malakali kadr bo'lishiga sabab bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ota-onalarga “Zamonaviy dunyoda kasb tanlash — shaxsiy erkinlik timsoli” ekanligini keng targ'ib etish lozim. Bugungi zamon — erkin fikrlash va

imkoniyatlar zamon. Har bir inson turli sohalarda o‘zini topishi, salohiyatini namoyon etishi mumkin. Axborot texnologiyalari, marketing, dizayn, tibbiyot, aeronavtika, kino va adabiyot — bularning barchasi insonga yangi yo‘llar ochib beradi.

Endi savol tug‘iladi: nima uchun bir shaxs o‘z qiziqishi san’atda bo‘lsa, uni muhandislikka majbur qilish kerak? Yoki ayniqsa qiz bola bo‘lsa, “bu qizlarga xos kasb emas” degan bahona bilan uning orzularini buzish adolatdandirmi? Kasb tanlash insonning shaxsiy huquqi, va bu huquqni hurmat qilish jamiyatning ma’naviy yetukligini ko‘rsatadi. Kasb tanlovida qiziqish va qobiliyat asosiy mezon bo‘lishi kerak. Chunki haqiqiy muvaffaqiyat faqatgina inson sevgan ish bilan shug‘ullanganda keladi. Qobiliyat va qiziqish asosida tanlangan kasbda yangi g‘oyalarga boy bo‘ladi, insonni charchamay faoliyat ko‘rsatishga undaydi, mehnat samaradorligini oshiradi. eng muhimi — insonning ruhiy baxtiga xizmat qiladi.

IV. An‘analarga hurmat — lekin ko‘r-ko‘rona ergashmaslik

Albatta, ota-ona va ota-bobolarning mehnati, kasbiga hurmat bilan qarashimiz lozim. Lekin bu hurmat — o‘z xohishimizdan kechish hisobiga bo‘lmasligi kerak. An‘anani saqlash — u bilan faxrlanishdir, lekin uning qurboniga aylanish emas. Agar ota-ona kasb tanlovini majburiy qilib qo‘ysa, farzand bilan ochiq muloqot qilish, uning qiziqishlarini tinglash kerak. Zamonaviy ota-ona bo‘lish — farzandning iste’dodini rivojlantirishga yordam berishdir.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkimki “ Yangicha fikrlash — kelajakni yaratadi”. Biz kelajak avlodni kasb tanlashdagi erkinlik — insonni baxtli, salohiyatli va ijtimoiy faol shaxsga aylantirishida o‘z hissamizi qo‘shishimiz kerak deb o‘ylayman. An‘analarni hurmat qilgan holda, har bir inson o‘z salohiyati va orzulari asosida kasb tanlashi lozim. Faqat shundagina jamiyatimizda o‘z ishidan rozi, baxtli, mustaqil va salohiyatli shaxslar ko‘payib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. G‘oziyev E. *Psixologiya*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. I.A. Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. Toshkent, 2008
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi . Toshkent, 2015
6. Axborot texnologiyalari asoslari. Toshkent, 2020.
7. Pedagogika va psixologiyaga oid o‘quv qo‘llanmalar.
8. Internet manbaalari va zamonaviy ta’lim platformalari ma’lumotlari